




Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal vebssayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



ALISHER NAVOIYNING "NASOYIMUL MUHABBAT" ASARIDA "TABAQA" VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shukur Jabborov

*Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: avliyo, kamolot, tasavvuf, tabaqa, ilohiyot, chiltan, ishq

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asaridagi avliyo kishilarning tabaqasi va uning xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, olti tabaqaga mansub insonlar qanday nomlanishi va ularning fazilati ochib berilgan. Ayniqsa, "tabaqa" tushunchasiga baho berilganida u sufiylikdagi tabaqa boshqa yo'naliishlardagi tabaqalardan ajralib turishi, kishining bu maqomi faqat axloq-odobda va komillikka erishuvda farqlanishi ko'rsatib berilgan. "Tabaqa" yo'naliishidagi asarlar orasida muayyan soha olimlarining tadqiq ishlari va hayotini yoritib beruvchi asarlar aslida juda ko'pligi ma'lum. Biroq, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida barcha avliyolik martabasi va tabaqaga mansub insonlar holati xos ilm orqali o'rjaniladi. Shu ma'noda ushbu maqola ham adabiyotda kam tilga olingan, kam tadqiq qilingan yo'naliishdir.

"STATUS" AND ITS CHARACTERISTICS IN ALISHER NAVOI'S WORK “NASAIMUL MUHABBAT”

Shukur Jabborov

*Methodologist, Department of Youth Affairs, Spirituality, and Enlightenment
Tashkent State University of Oriental Studies*

ABOUT THE ARTICLE

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

Key words: saint, maturity, mysticism, class, theology, chiltan, love.

Abstract: This article talks about the class of saints and its characteristics in Alisher Navoi's work "Nasayimul Muhabbat". The status of people belonging to the six classes and their merits are also revealed. Especially when assessing the concept of "status," it is shown that the caste in Sufism differs from the castes of other directions, and this status of a person differs only in morality and perfection. It is known that among the works in the "Status" direction there are actually many works covering the research activities and life of scientists in a certain field. However, in the work of Alisher Navoi "Nasaimul Muhabbat", all the holy careers and status of people belonging to the caste are studied with the help of special science. In this sense, this article is also an under-mentioned and under-researched area in the literature.

"СТАТУС" И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ «НАСАЙИМУЛ МУХАББАТ»

Шукур Джаббиров

Методист отдела по работе с молодежью, духовности и просвещения
Ташкентский государственный университет востоковедения

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: святой, зрелость, мистика, каста, богословие, чилтан, любовь.

Аннотация: В данной статье говорится о классе святых и его характеристике в произведении Алишера Навои «Насайимул Мухаббат». Также раскрываются статус людей, принадлежащих к шести классам, и их достоинства. Особенно при оценке понятия «статус» показано, что каста в суфизме отличается от каст других направлений, и этот статус человека отличается только нравственностью и совершенством. Известно, что среди работ по направлению «Статус» на самом деле немало работ, освещдающих исследовательскую деятельность и жизнь ученых определенной области. Однако в произведении Алишера Навои «Насайимул Мухаббат» все святые карьеры и статус людей, принадлежащих к касте, изучаются с помощью специальной науки. В этом смысле данная статья также является малоупомянутой и недостаточно исследованной областью в литературе.

KIRISH.

Hazrat Navoiyning “Nasoyimul –muhabbat” asarida valiyalar olti tabaqaga ajratib keltiriladi. Alisher Navoiyning “Nasoyimul –muhabbat” asarida valoyatning valoyati uzmo (buyuk) yoki valoyati lohutiy, valoyati kubro (ulug‘) yoki valoyati jabarutiy, valoyati vusto (o‘rtacha) yoki valoyati malakutiy, valoyati sug‘ro (kichik) yoki valoyati nosutiy kabi darajalari bo‘lib, valoyati uzmo kitob tushgan payg‘ambarlarga, valoyati kubro boshqa nabiylarga, valoyati vusto valiylargi, valoyati sug‘ro mo‘minlar va oriflarga taalluqlidir. Avliyolar ham o‘z o‘rnida oltita tabaqada izohlanib, quyidagi darajalarga bo‘linadi:

1. Qutb – Tasavvuf shayxlariga beriladigan eng oiliy unvon. Tasavvufda ma’lum bir darajaga yetgan avliyolar. Ular har bir zamonda bir yoki ikki nafar bo‘ladilar. Har bir davrning o‘z qutbi bo‘lib, ular o‘ziga xos vazifalangandirlar. Ularning qalbi Muhammad (a.s) qalblari bilan aloqador bo‘ladi.

2. G‘avs – Bu ham Qutb kabi bo‘lib, yordam beruvchi degan ma’noni anglatadi. Lekin dunyoda hozircha G‘avsul A’zam, ya’ni Abdulqodir G‘iloniyini bilamiz, xolos.

3. Abdol – G‘oyib kishilar toifasidan bo‘lib, o‘zları xalq ichra bo‘lsalar-da, ularning abdol ekanliklarini hech kim bilmaydi. Abdol fors va turkiy tillarida “chiltan” (qirq kishidan iborat) deb yuritiladi. Ulardan qaysi biri vafot etsa, o‘rniga darhol yangisi tayin etiladi. Oldingi kishiga badal (o‘rinbosar) bo‘lib kelgani uchun ham ularga “abdol”, ya’ni “o‘rinbosarlar” deb nom berilgan. Ba’zi manbalarda ularning adadi 400ta ekanligi qayd qilingan.

4. Avtod – bu so‘zning lug‘aviy ma’nosи “qoziqlar”dir. Ular ham abdol kabi zotlar bo‘lib, adadlari ba’zi manbalarda 4 nafar deyilsa, ba’zilarida 70 nafar deyilgan.

5. Nujabo – Oliy zot bir toifa avliyolarki, ular faqat insonlarning foydasi uchun faoliyat ko‘rsatadilar. Ularning odamlar haqqiga qilgan duolari mustajob bo‘ladi. Ularning adadi ba’zi manbalarda 70 kishi deyilsa, yana ba’zi manbalarda 40 kishi deb ko‘rsatilgan.

6. Nuqabo – Tasavvufda bir toifa avliyolarga shu nom berilgan bo‘lib, ular ummatlar bilan zomindirlar. Ular odamlarning sirlaridan voqifdirlar.

Adadlari 300 nafar. Mana shular avliyolarning tabaqalari, darajalari va nomlaridir. Bunga qo‘srimcha o‘laroq shuni keltirish lozimki, valiy inson xislatlari, valiylik maqomi, darajalari ustida vatandoshimiz Hakim at-Termiziy chuqur tahlil qilgan. Allomaning fikricha, haqiqatga yetishishlikda ilm va aqldan boshqa yana bir uchinchi – ilohiy narsa – valiylik ham bor. Umuman olganda, qalb ko‘zgusi pok bo‘lgan insonlar ruhiy olam sirlaridan xabardor bo‘ladi.

Misol uchun “Nasoyimul –muhabbat” [1] asarida 124-sonda ko‘rsatilgan Abu Abdulloh Xusriy (q. s.) haqida shunday deyiladi: "Basradindur, Shayx Fath Mavsiliy q. s.ning shogirdidur. Xusriy naql qiladi: Fath Mavsiliydan eshitdim, u aytdi: abdollardan bo‘lgan o‘ttizta shayx bilan suhbatlashdim. Ularning har biri xayrlashayotganda: «Zinhor yoshlar bilan ulfatchilik qilma!» – deb nasihat qildilar. Hazrat Navoiy valiyalar tabaqasini albatta eslab o‘tishga harakat qiladilar: "159. Mahfuz b. Mahmud r. t. Ikkinch tabaqadindur va uchunchidin ham debdurlar. Nishobur mashoyixining akobiridindur. Abu Hafs as‘hobidin." Qaysi tabaqadan ekanligi haqida ma’lumot bo‘lsa Hazrat "Ikkinch tabaqadindur va uchunchidin ham debdurlar" usulida zikr qilib o‘tgan.

Darvoqe, Hakim at-Termiziy o‘zining “Xatm ul-avliyo” asarida [2] valoyat va avliyolik masalalariga alohida to‘xtalgan. Bu asarda alloma sufiylik tarixida birinchi marta tilga olingan avliyolik darajalari, xatm ul-anbiyo va xatm ul-avliyo mavzularini tahlil etgan. Bu asarda esa valoyatning o‘n xususiyati, avliyolarning alomatlari, vahiy, ilhom, vajd, karomat, farosat, jazaba, qurb kabi masalalar Qur’on va hadisdan keltirilgan dalillar asosida yoritilgan. “Xatm ul-avliyo” asarining to‘rtinchisi faslidagi “Ruhoniy savollar”da esa alloma avliyolikni da’vo qiladigan insonlarning avliyo yoki avliyo emasliklari, ularning iddaolari haq yoki nohaqligini aniqlash uchun 157 ta savol tuzib, ularga batafsil javob bergan. Jumladan, “Anbiyolardan bo‘lmagan odam anbiyolardan ustun bo‘lishi mumkinmi?”, degan savolga: “Nabiyning payg‘ambarligi va maqomi (tabaqasi – Sh.J.) tufayli hech bir nabiyyidan hech bir shaxs afzal bo‘la olmaydi”, deb javob bergan.

Yana Navoiy hazratlari "Nasoyimul muhabbat"da o‘zi tabaqaga ajratishdan tashqari boshqa bir zotlarning nazarda tutilayotgan zot haqida tabaqaga ajratib guvohlik berishiga ham e’tibor qaratadi. Misol uchun 202. -raqam bilan zikr qilingan aziz zotga e’tibor qilamiz: "Ibrohim b. Dovud Qassor Riqqiy r. t. Ikkinci tabaqadindur. Kuniyati, Abu Is’hoq. Shom mashoyixining ajillasidindur. Junayd va Abu Abdulloh Jalloning aqronidindur. Umri uzoqqa tortti, uchunchi tabaqag‘a yetti. Va Shayx Sulamiy (bu zot haqida quyida alohida to‘xtalamiz – Sh.J) ani o‘z bitigan tabaqotda uchunchi tabaqada bitibdur..." Guvohi bo‘lganiningizdek, bu yerda Navoiy bu zotning ikkinchi tabaqaga mansub ekanini aytsa-da, boshqa insonlar bu zotdagi uchinchini tabaqaga mansublikni alohida eslatib o‘tmoxda. Chunki maqom, daraja bir joyda qotib qolmaydi. Zero inson hamisha harakatda, hamisha komillashib boradi.

Shu o‘rinda xos bo‘lgan "tabaqqa" haqidagi so‘z faqat sufiylar adabiyotida uchramaydi. Balki barcha ijtimoiy-ma’naviy turmushda darajaga, tabaqaga bo‘lib o‘rganish mavjud.

Bunday asarlar esa juda ko‘p. Aytaylik ayol sahobalar tarjimayi holiga bag‘ishlangan “Tabaqot an-Niso” nomini olgan asar Umar roziyallohu anhu qalamiga mansubligi aytishadi. Agar Umar (r.a) bunday hisobni yuritmanganda boshqa qaysidir sahoba baribir ayol sahobalarni sanashi tabiiy edi. Bunda sahobiya ayollarni besh tabaqaga ajratib ta’rif berilgani aytildi. Umuman, islom tarixnavisligida tabaqot "janri" ham bor. Ushbu yo‘nalishda yozilgan asarlarda islom tarixida mashhur shaxslar, olimlar, fozillar, zohidlar, shoirlar va boshqa turli soha vakillarining hayoti muayyan tartibda bayon qilinadi. Mazkur yo‘nalida yozilgan va bizgacha yetib kelgan kitoblarning eng avvali Muhammad ibn Sa’d Zuhriy (784-845) qalamiga mansub “Tabaqot al-kubro”, ya’ni "Ulug‘lar tabaqasi" asarinir aytish mumkin. Undan avval ham “tabaqqa” usulida kitoblar yozilgan esa-da, ular bizgacha yetib kelmagan. Muhammad ibn Sa’d Zuhriyning ushbu asari islom tarixining dastlabki davrini yoritishi va keng qamroviligi bilan alohida ajralib turadi. Muallifning “Tabaqot al-kubro” asari ikki asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, b “Axbor an-Nabiy” (Payg‘ambar (a.s.) haqida ma’lumot, ya’ni siyrat) va “Tabaqot” (sahobalar, tobeinlar, taba tobeinlar va salafi solihiyinlar tarjimayı holi) bo‘limlaridir.

Bunday usuldagagi asarlar ko‘p bo‘lib, deylik, “Tabaqot al-udabo” (Adiblar tabaqalari), “Tabaqot al-xulafo” (Xalifalar tabaqalari), “Tabaqot al-umaro” (Amirlar tabaqalari), “Tabaqot ash-shuaro” (Shoirlar tabaqalari), “Tabaqot al-atibbo” (Tabiblar tabaqalari), “Tabaqot al-avliyo” (Avliyolar tabaqalari), “Tabaqot al-huffoz” (Hofizlar tabaqalari), “Tabaqot al-hukamo” (Hakimlar, donolar tabaqalari), “Tabaqot al-xattot” (Xattotlar tabaqalari) kabi asarlar yozilgan.

Hatto, "Tabaqot al-lug‘aviyyin va al-nuhat" (Lingvist -tilshunoslar va sarv va nahv bilimdonlari bo‘lmish grammatikachilar tabaqalari) va boshqa sohaga oid kishilarning tabaqalariga bag‘ishlangan asarlar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari xos, ya’ni ixtisoslashgan soha vakillari uchun hozir ham qo‘llanma vazifasini bajaradi.

"Tabaqa" yo‘nalishidagi asarlar orasida muayyan soha olimlarining tadqiq ishlari va hayotini yoritib beruvchi asarlar ham mavjud. Masalan, Jaloliddin Suyutiyning "Tabaqot al-usuliyin" (Usul al-fiqh olimlarining tabaqalari), Shamsuddin az-Zahabiyning "Tabaqot al-huffoz" (Hofizlar tabaqalari), Abdulloh ibn Yusuf Shofeiylarning (vaf. 489/1096 y.) "Tabaqot al-fuqaho" (Faqihlar tabaqalari), Xalifa ibn Xayyot, Muslim ibn Hajjoj va Muhammad ibn Sa‘dlarning "Tabaqot ar-ruvot" (Roviyalar silsilasiga bag‘ishlangan), Muhammad ibn Sa‘dning "Tabaqot as-sahoba va at-tobein" (Sahobiy va tobe‘iyylarning tabaqalari), Muhammad ibn Abdulmalik (vafoti 521/1127 y.), Abu Is‘hoq Sheroziy (vafoti 476/1083 y.), Abu Ali Bag‘dodiy (vafoti 471/1078 y.), Abu Marvon Molikiy (vafoti 339/950 y.), Haysam ibn Adiyning (vafoti. 207/822 y.) "Tabaqot al-fuqaho va-l-muhaddisin" (Faqihlar va muhaddislar tabaqalari), Umar ibn Ali Shofi‘iy (vafoti 804/1401 y.), Abul Qosim Andalusiylarning (vafoti 353/964 y.) "Tabaqot al-muhaddisin" (muhaddislar tabaqalari), Jaloliddin Suyutiyning "Tabaqot al-mufassirin" (Mufassirlar tabaqalari) kabi asarlarni keltirish mumkin.

Darvoqe, shu o‘rinda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Farididdin Attor usulida tazikra bitgan Sulamiy — Abu Abdurahmon Muhammad ibn Husayn (937 yoki 942-1021) haqida alohida ta‘kidlash lozim. Sulamiy Xurosondagi so‘fiylar tariqatining yirik vakili bo‘lib, ko‘plab asarlar muallifidir. Asli Nishopurda tug‘ilgan Sulamiy tariqatdagi fotiha olishni, ya’ni tasavvuf iborasi bilan aytganda, xirqani otasidan olgan, lekin uni so‘fiy bo‘lib shakllanishida bobosi Ismoil ibn Nujayd mo‘tadil malomatiylardan bo‘lib, u juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Sulamiy hadis ilmini va fiqhni u as-Sibaiy, al-Asamm, ad-Daraquniy va boshqalardan o‘rgangan. Sulamiy ko‘p sayohat qilgan, jumladan Iroq, Suriya, Hijoz va xalifalikning sharqiy viloyatlarida bo‘lgan. U ancha vaqt Bag‘dodda yashagan va Nishopurga qaytib kelib, o‘zining katta uyini kutubxonaga aylantirgan. Shu kutbuxonani so‘fiylar foydalanishiga bergen. Sulamiyning bu sadaqayı joriyasi sabab vafotidan keyin ham so‘fiylar undan foydalanishni davom ettirganlar. Sulamiy asos solgan ushbu so‘fiylar dargohi (duvayra so‘fiya) uning nomi bilan atalgan. Hayoti davomida u yuzdan ortiq asar yozgan bo‘lib, shundan o‘ttizga yaqini bizgacha yetib kelgan. Uning eng mashhur asari esa "Tabaqot as-so‘fiya"dir.[3] Bu asar o‘sha davr tasavvuf ahli haqidagi eng qimmatli manba hisoblanadi. Sulamiy asarlardan tashqari ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Shogirdlari orasida uning ishini davom yettirgan Kushayriy va xurosonlik mashhur tarixchi olim Bayhaqiylar ham semahsul ilm qilganlar.

Endi bevosita Alisher Navoiyning "Nasoimul muhabbat" tazkirasida "tabaqa" va "daraja" tushunchalari tadqiqi haqida gap ketganda Navoiy bu asarni avvalgi salaflar asariga ko‘ra tasnif etganini unutmaslik lozim. Alisher Navoiy "Nasoimul muhabbat"da 770 nafar zot haqida ma’lumot bergen bo‘lsa shulardan aksariyatining tabaqa va darajalari to‘g‘risida to‘xtalgan. Aslida shu tazkira kabi boshqa manbalarda ham avliyo zotlarning tabaqasi haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, sufiylik darajasidagi muayyan tabaqaga mansub zotlar u yoki bu tabaqa mansub bo‘lishlari muqarrar holat. Alisher Navoiyning mazkur asarida ham, boshqa barcha manbalarda jami oltita tabaqa mavjudligini bilib olishimiz mumkin.

Birinchi tabaqa Zunnun Misriydan boshlangan. Bu yerda “Avvalg‘i tabaqadindur” iborasi “Birinchi” ekanini bildiradi.

Demak birinchi tabaqa – Zunun Misriy, Fuzayl ibn Iyoz (ayrim manbalarda – Ayoz), Ma'ruf Karxiy, Abu Sulaymon Doroniy, Ibrohim Adham, Bishr ibn Horis ibn Abdurahmon, Shaqiq ibn Ibrohim al-Balxiy, Horis ibn Asad al-Muhosibiy, Abu Turob Naxshabiy, Ahmad al-Huzraviy, al-Balxiy, Yahyo ibn Mu'oz Roziy, Boyazid Bistomiy, Abu Hafs Haddod, Hamdun Qassor, Mansur ibn Ammor, Ahmad ibn Osim Antokiy, Hotam Assam, Ahmad ibn Abulhavoriy, Abu Abdulloh Xubayiq Sobiq al-Antokiy,

Ikkinchi tabaqa – Sarriy ibn Muhallis Saqatiy (bu zot Junayid Bag‘dodiyning tog‘asi va ustozni, piri), Sahl ibn Abdulloh Tustariy, Abu Said Xarroz, Abulhusayin Nuriy, Sayyid toifa Junayid Bag‘dodiy, Amr ibn Usmon al-Makkiy, Shoh Shujo’ Kirmoniy, Abu Usmon al-Hayriy, Abulabbos ibn Masruq, Abu Abdulloh Mag‘ribiy, Ruvayim, Yusuf ibn Husayin ar-Roziy, Samnun ibn Hamza al-Muhib al-Kazzob, Ali ibn Sahl al-Azhar al-Isfahoniy, Abu Abdulloh ibn Jallo, Abu Abdulloh as-Sijziy, Muhammad ibn Fazl al-Balxiy, Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziy, Abu Bakr al-Varroq at-Termiziy, Abu Ali Juzjoniy, Muhammad Ahmad ibn Abulvard, Mahfuz ibn Mahmud, Ibrohim ibn al-Havvos, Abuabbos Ibn Ato, Muhammad ibn Homid at-Termiziy, Ibrohim ibn Dovud al-Qassor ar-Raqqiy,

Uchinchi tabaqa – Abu Hamza Xurosoniy, Abu Hamza Bag‘dodiy, Mumshod Dinovariy, Tohir Maqdisiy, Abu Muhammad Jurayriy, Husayin al-Mansur al-Halloj, Abu Amr Damashqiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Harroz, Bunon ibn Muhammad al-Hammol, Abulhusayin ibn Muhammad al-Muzayyin, Abulhasan Soyig‘ Dinavariy, Abulhasan as-Subayhiy, Abu Ja’far Ahmad ibn Hamdon ibn Ali ibn Sinon, Shayx Abulhasan Varroq, Abulhusayin ad-Darroj, Abu Bakr Zaqqoq Kabir,

To‘rtinchi tabaqa – Abu Ya’qub Nahrjuriy, Shayx Abu Bakr Kattoniy, Abu Bakr ash-Shibliy, Abu Bakr ibn Yazdonyor Urmaviy, Abu Bakr Tohir al-Abhariy, Abu Bakr ibn Abi Sa’don, Abu Ali Rudboriy, Abu Ali as-Saqafiy, Abu Ali al-Kotib al-Misriy, Abdulloh ibn Muhammad al-Ma'ruf bil-Murta’ish, Abdulloh ibn Muhammad Manozil, Abulkayr Taynotiy, Ibrohim ibn Shaybon Kirmonshohiy, Ibrohim ibn Ahmad Muvallid as-Sufiy ar-Raqqiy, Muzaffar Kirmonshohiy Qirmisniy, Abulhusayin ibn Bunon, Abulhusayin ibn Hind al-Forsiy, Abu Ja’far Muhammad ibn Ali an-Nasaviy al-Ma'ruf ibn Muhammad G‘alton

Beshinchchi tabaqa – Abu Usmon Mag‘ribiy, Ali ibn Bundor ibn Husayin as-Sufiy as-Sayrafiy, Abuabbos Dinavariy, Abulabbos as-Sayyoriy, Abu Bakr ad-Duqqiy, Abu Bakr Tamastoniy, Abu Bakr Farro’, Abu Bakr ash-Shabahiy, Abu Sa’id A’robiy, Abu Amr az-Zujoj, Ja’far ibn Muhammad ibn Nusayir al-Xuldiy al-Xavvos, Abulhasan as-Sufiy al-Fushanjiy, Bundor ibn Husayin ibn Muhammmad ibn Muhallab ash-Sheroziy, Abu Amr Nujayid, Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdurahmon ar-Roziy, Abulqosim Nasrobodiy, Abulhusayin al-Husriy, Abu Abdulloh al-Hafif ash-Sheroziy, Abu Abdulloh at-Turug‘andiy, Abu Abdulloh Rudboriy, Abu Abdulloh al-Muqriy, Abulqosim al-Muqriy, Abu Muhammad ar-Rosibiy, Abu Abdulloh Dinavariy,

Oltinchi tabaqa – Abulabbos Nihovandiy, Abu Bakr Tarsusiy, Abulhusayin Sirvoniy Sag‘ir, Abulhusayin al-Jahzam Hamadoniy, Abulmuzaffar Termiziylardir.

Bu olti tabaqadagi barcha ulug‘ zotlar muruvvat va futuvvatda peshqadam bo‘lganlar. Nafsilamrini aytganda, Alisher Navoiy muruvvat va futuvvatning muxtar ko‘rinishi bo‘lmish saxiylik haqida maxsus dostonda, ya’ni “Sab’ai sayyor”ning birinchi hikoyatida Xurosonda azaldan katta shuhrat qozongan va asosan shahardagi hunarmandlarining katta qatlmini qamrab olgan qudratli xalq uyushmasi — javonmardlikni chetlab o‘tganday tuyuladi. Biroq, bunday yo‘l tutilganda "Nasoyimul muhabbat" tazkirasi juda katta jildli kitobga aylanib ketgan bo‘lardi. Vaholanki, shoir asarlarida “futuvvat”, “javonmard” atamalari komil insonlarga xos ijobili xususiyat sifatida ko‘p tilga olinadi. Sufiylikning g‘oyasi bu komil insonni tarbiyalash ekanini hisobga olsak, haqiqiy so‘fiy odamgina tom ma’noda “javonmard” bo‘la oladi.

Ma’lumki, Farididdin Attor ham xuddi Navoiydek avliyo zotlarning tabaqasini eslab o‘tadi. [4] Busiz ifoda notugal hioblanadi. Uning futuvvatga oid 72 haqli talabi (sifat, xususiyat), Husayn Voiz Koshifiy esa (uch daraja, o‘n ikki rukn (ustun) 71 ta shartni ko‘rsatgan. Ana shularning barchasi ikkita sifatda mujassam bo‘ladi: saxovat (do‘stlarga naf’ yetkazmoq) va shijoat (do‘stlarni dushmanlardan asramoq). Agar Hazrat Navoiy asarlaridagi nekbin qahramonlar faoliyati, shuningdek, uning g‘azallari va “Mahbub ul-qulub” dostoniga e’tibor qilsak, barcha muhim sifatlar javonmardlik talablari bilan muvofiq ekanligiga to‘la qanoat hosil qilamiz.

Komil insonlar tabaqasini ajratib ko‘rsatganidek, Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida kamolot darajalari ham ramzlar orqali ifodalanadi. Masalan, “Lisonut-tayr” dostonidagi bosh qoliplovchi hikoya: jahon qushlarining yig‘ilishib martaba va fazilatlariga ko‘ra joy talashishlari voqeasidan tortib, qushlarning Hudhud yo‘lboshchiligidagi Simurg‘ni izlab yetti vodiyan, ya’ni Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano manzillaridan o‘tishlari va Simurg‘ni topolmay, Simurg‘ — Simurg‘ni izlashga chiqqan si-murg‘ (o‘ttiz qush)ning o‘zi o‘zini qidirganligi yuksak sufiyona ma’no tashiydi. Bu asardan chiqadigan xulosa ham bitta: Olam — borliq Allohu taborakning zuhuridan iboratdir. Qushlar (odamlar) Simurg‘ni izlab (ya’ni Xudoga yetishish uchun) yo‘lga chiqishlari va bunda Alloho izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyoza bosqichidan, ya’ni daraja va manzilat hisoblanmish Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano kabi tabaqadan o‘tadilar va ruhga aylanib, Alloh azza va jalla bilan qovushadilar.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nazarada tutgan tabaqalar shunday yuksak maqomki, inson axloqda kamolot kasb etib, qaysidir ma’noda ruhan va ma’nan ilohiyashishi, ya’ni farishtaday zotga aylanishi shartlarini ko‘rsatib bergen.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. “Nasoyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat”. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi – Hamidxon Islomiy – T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2017 yil, -B. 575.
2. Hakim at-Termiziyning «Xatm ul-avliyo». – Toshkent, «Guliston» jurnali, 2000 yil, 5-son, 26-bet.

3. Abu Abdurrahmon Muhammad ibn Husayn Azdi Sulamiy «Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima» - T.: «Nilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2020 yil. -B. 112 bet. ISBN: 978-9943-5980-3-4

4. Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo / A.Madraimov tarj. –T.: G‘.G‘ulom, 2013.

